

## MAXSUS FANLARNI O`QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH

*Shodmonov D\*, Nosirova A.\*\*.*

*\*TATU SF “Raqamli va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi katta o’qituvchisi*

*shodmonovd1985@gmail.com*

*\*\*TATU SF 4-bosqich talabasi*

**Аннотация:** Разработана методика создания и использования видеолекций для обучения студентов, обучающихся в образовательных учреждениях, использованию инновационных образовательных технологий.

**Abstract:** A methodology for creating and using video lectures teaching students studying in educational institutions how to use innovative educational technologies has been developed.

**Kalit so`zlar:** Audiovisual, qulaylik, innovatsiya, adabiyot, o'zlashtirish, qiziqtirish, baholash, interaktivlik,

Respublikamiz maktablari, o`quv yurtlari va muassasalarini kompyuterlashtirish keng yo`lga qo`yilmoqda. Biroq davlat tilida yozilgan va informatika asoslariga doir adabiyotlar yetarli emas, yetarli bo`lsada ularning har bir ma’ruzasida ta’lim texnologiyasi asosidagi dars ishlanmasi berilmagan[1].

Kam nusxadagi ayrim qo`llanmalarni hisobga olmaganda, bu sohaga oid kitoblar deyarli yo`q. Bu muammo, tabiiy, mavjud kompyuterlardan samarali foydalanishda, informatikaga va kompyuter ilmlariga oid bilimlarni keng omma orasida yoyishda qiyinchiliklar tug`diradi. Ayni paytda shuni tan olish lozimki, dasturlashtirishga oid universal – mакtab o`quvchisidan doktarantgacha, muhandisdan hisobchigacha ma’qul bo`ladigan ta’lim texnologiyalari qo`llanilgan kitob yaratish mushkul.

Ishimizning maqsadi, ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarga innovatsion ta’lim texnologiyalardan foydalanishni o’rgatuvchi videoma’ruzalar yaratishni va ulardan foydalanishni baholash metodikasi ishlab chiqilgan[2].

Interfaol ta’lim texnologiyasi ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o’qituvchi, talaba va talabalar guruhi o’rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg`in bahs-munozaralar, o’zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o`quv materiallarini o`zlashtirishda talabalarning o’zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o’qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o’zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo`llab-quvvatlashlari, samimiyl munosabatda bo`lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi[3].

Interfaol ta'lim texnologiyasi mohiyatiga ko`ra suhbatning “talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o`qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko`nikma, malakalarning o`zlashtirilishini anglatadi.

Pedagog ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyasi yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o`z-o`zini nazorat, o`z-o`zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishslash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o`z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo`ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali o`qituvchi talabalarning aniq ta`limiy maqsadga erishish yo`lida o`zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo`naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo`lga kiritadi[4].

Ishining ob'ekti va predmeti sifatida Samarqand tumani 3-son umumta'lim maktabi, 8-sinf “Informatika” fani mashg`ulotlarini interfaol texnologiyalardan foydalanib bilim olish jarayoninin faollashtirish qaralgan.


“Informatika” fani mashg`ulotlarini tanlangan interfaol texnologiyalardan foydalanib, mashg`ulotni olib borganimizda sinflarda turlicha o`zlashtirishlarni kuzatishimiz aniq. Demak shu bosqichda biz foydalanilgan texnologiyalardan qaysi biri samaradorli ekanini baholashimiz kerak bo`ladi. Chunki foydalanilgan texnologiyani o`zlashtirishga ta'siri keyingi qadamlarda tanlovni amalga oshirishimizda muhum.

Bunga erishish maqsadi “Informatika” fanini mavzularidan birini o`qitishda interfaol ta'lim uslublaridan foydalangan holda o`quv moduli ishlanmasini shakllantirish va uni amaliyotda sinovdan o`tkazish kerak bo`ladi.

Belgilab olingen maqsaddan kelib chiqqan holda loyiha ishida qo`yidagi vazifalar yoritilgan:

- O`zbekistonda ta'lim tizimiga interfaol ta'lim texnologiyalarini joriy etish jarayonlarini o`rganish;
- ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalarini tadbiq qilishni zamonaviy xorij tajribalarini tahlil qilish;
- tanlangan mavzuning texnologik xaritasini shakllantirish va uning tarkibida ta'lim texnologiyasini qo'llashni asoslash;
- mavzu bo'yicha amaliy darslar jarayonida “Bumerang”, “Sinkveyn” va “Ven diagrammasi” va hokozo ta'lim texnologiyasidan foydalanish va uning afzalliklarini aniqlash;
- ko`zlangan maqsadga erishish uchun sayt yaratish;


- sayt tarkibida o`quv kontentni shakllantirish;
  - interaktiv menyuda o`quvchilarni sinovdan o`tkazadigan xizmat yaratish;
  - foydalanilgan texnologiyani samaradorligini aniqlaydigan xizmat yaratish.
- Loyiha doirasida sayt yaratildi.



*1-rasm. Yaratilgan saytimizni bosh oynasinin umumiy k`orinishi*

“Informatika” fanini o`qitishda interfaol ta`lim texnologiyalarini qo`llash o`quvchilarda o`qishga qiziqishni hosil qilish, muammoli vaziyatlarni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarini topish qobiliyatini oshiradi. Mavzu doirasida qo`llanilgan interfaol texnologiyalar o`quvchilarda muammoli vaziyatni mantiqiy fikrlash, axborotlar bilan ishlash mahorati va hamkorlik texnologiyasi usullarini amalda qo`llay olish ko`nikmalariga turlicha ega bo`lishganini ko`rsatadi.

Nazorat olingandan so`ngi natijalar.



*2-rasm.O`zlashtirish diagrammasi.*

Xulosa qiladigan bo`lsak, “Bumerang” texnologiya qo`llanilgan sinfda o`zlashtirish eng yuqori. Navbatdagi mashg`ulotlarda shu texnologiyadan foydalanishni tavsiya etamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodmonov D., Polatov J. “Oquv reja, baho va baholash” fanini oqitishda multimediali elektron qollanmadan foydalanish //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 17. – №. 1. – С. 12-15.
2. Narzullayeva N. U., Djumayev S. N., Mardiyev A. U. Mobil ilovalarning online savdodagi imkoniyatlari //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 56-60.
3. Djumayev S. N., Narzullayeva N. U., Umarova M. F. Ish yuritish hujjatlarini tayyorlashni avtomatlashtiruvchi axborot tizimini yaratish bosqichlari //pedagogs jurnali. – 2022. – Т. 23. – №. 1. – С. 138-143.
4. Шодмонов Даврон Абдувалиевич, Ахророва Феруза Оценка эффективности образовательной модели смешанного обучения // Вестник науки и творчества. 2021. №10 (70). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-effektivnosti-obrazovatelnoy-modeli-smeshannogo-obucheniya> (дата обращения: 07.03.2024).